

«Insonlarga nur tarqatuvchi” – kasb

Kutubxonachi – bu juda qadimiy kasb bo'lib, bundan to'rt ming yil avval vujudga kelgan. Qadimgi davrning birinchi kutubxonachilari – bu bir necha ming yil oldin loydan yaralgan lavhalarni to'plagan xattotlar bo'lgan. Zamonaviy kutubxonani – bu kitoblar, jurnallar va gazetalar hamda boshqa nashr mahsulotlarini o'z ichiga olgan katta bir sayyora deb tasavvur qilsak, ushbu sayyoraning asosiy yo'lboshchisi bo'lib kutubxonachi hisoblanadi. 21-may O'zbekistonda “Kutubxonachilar kuni” deb e'lon qilingan. Ushbu kun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot - kutubxona xizmatini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori bilan qabul qilindi.



Prezident Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek, “dunyodagi har bir davlat va har bir millat, avvalo, o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan kuchli va bu yengilmas kuchning manbai kitoblar va kutubxonalar – insoniyatning buyuk kashfiyotidir”. Endilikda TIQXMMI Axborot - resurs markazi kutubxonachilari oldida ular sharaf bilan bajaradigan katta vazifalar turibdi. ARM o'z fondini o'quv dasturlari, institut o'quv rejalarini va ilmiy tadqiqotlar mavzulariga muvofiq to'ldirishni ta'minlaydi. Turli xil va turdag'i xujjatlar, shu jumladan elektron shakldagi o'quv, ilmiy, ma'lumotnomalar, davriy nashrlar va badiiy adabiyotlarni olishni tashkil qiladi.



Foydalanuvchilarga o'quv zallarida, o'quv va ilmiy abonnementlarda toifalar bo'yicha yagona kitobxonlik guvoxnomasi asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etadi. Mavzuli kitob ko'rgazmalari, bibliografik sharxlar, ma'lumotnomalar, institutning ilmiy va o'quv faoliyatiga yordam sifatida adabiyotlar ro'yxatini tuzadi. Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish bilan shug'ullanadi, ilg'or kutubxona texnologiyalarini targ'ib etadi. Foydalanuvchilarning talab va qiziqishlarini o'rganish maqsadida turli tadqiqotlar olib boradi. Kutubxonachilar kuni bilan Respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha ma'rifat va ziyo tarqatuvchi soha fidoyilarini, shu jumladan TIQXMMI ARM ning kutubxonachi xodimlarini tabriklaymiz. Ularning zahmatli, shu bilan birgalikda sharaflı faoliyatlarida kuch-quvvat va zafarlar tilaymiz.

**Axborot - resurs markazining “Ilmiy-uslubiy, axborot-
ma'lumot bo'limi” mudiri N. Yu. Milichenkova
TIQXMMI matbuot xizmati**